

GLOBALASHUV SHAROITIDA IJTIMOYIY TARMOQ TUSHUNCHASI VA UNING JAMIYAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

КОНЦЕПЦИЯ И ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ СЕТИ НА БЕЗОПАСНОСТЬ ОБЩЕСТВА В ГЛОБАЛИЗАЦИИ

THE CONCEPT OF SOCIAL NETWORK IN GLOBALIZATION AND ITS IMPACT ON SOCIETY SECURITY

Zoirkhujayev ULMASKHUYAYEV

INSTITUTE FOR SOCIAL AND SPIRITUAL STUDIES,

doctor of philosophy PhD, Researcher.

E-mail: zoirkhujayev@gmail.com

9, Bobur street, Tashkent 100100, Uzbekistan.

DOI: 10.47980/IIAU/2023/3/10

Annotatsiya: Jahonda kechayotgan keskin globallashuv jarayonlarida axborot texnologiyalari inson faoliyatining barcha sohalariga tatbiq etilmoqda. Jumladan, zamonaviy ommaviy kommunikatsiyalar hozirgi zamon sivilizatsiyasining muhim voqeligiga aylangan, taraqqiy etgan davlatlarda muhim ehtiyoj vositasi hamda ommaviy muloqot subyekti darajasiga ko'tarildi. Hozirgi kunda axborot makoni gomogenlashuvining yuzaga kelishi ilmiy-texnikaviy va texnologik yutuqlarning keng tarqalishi, ularning umumiy taraqqiyotga xizmat qilishi bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning mamlakat imijini shakllantirishdagi ya'ni, davlatlarning qo'lga kiritayotgan olamshumul yutuqlarni jahon media makonida keng targ'ib qilishdagi o'rni tobora ortib bormoqda. Biroq, inson qadriyatini noaxloqiy yo'nalgan ko'rinishlarining ommalashishi, shaxs dunyoqarashiga nisbatan yot g'oyalar bilan ta'sir ko'rsatish insoniyatning milliy zamini va o'zligidan begonalashuviga olib kelmoqda. Aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali ushbu omillarni shaxs dunyoqarashiga ta'siri, oqibati va tahdid yo'nalishlarini aniqlash dolzarb ahamiyatga ega.

Rivojlangan davlatlarda fuqarolarning siyosiy madaniyati, xulq-atvori hamda ijtimoiylashuvi jarayonlarini qamrab olgan siyosiy ong, siyosiy qadriyatlar, jamiyatda ishonch omilini mustahkamlovchi fenomen sifatida mafkuraviy tarbiya hamda ijtimoiy tarmoqlar vositasida mamlakat imijini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalarni kashf etish va ularni amaliyotga joriy etish yuzasidan salmoqli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur

tadqiqotlarda dunyoda globallashuv jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan g'oyaviy tuzoqlar va ularning madaniyat omiliga ta'siri, ijtimoiy tarmoqlar orqali inson ongin manipulyatsiya qilish hamda har qanday xatti-harakatlarga, milliy manfaatlariga raxna solish, siyosiy qadriyatlarga tajovuz qilish, insoniyatning tarixiy xotirasini buzishga urinishlarning oldini olishning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy yechimlarini tadqiq etish ustuvor ahamiyat kasb etgan. Bu borada axborotlashgan jamiyatni yaratish, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lgani kabi axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, eng avvalo, ushbu sohalarining siyosiy, ijtimoiy, huquqiy asoslarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir.

Yangi O'zbekiston sharoitida shaxs ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'sirini ijobiy tomonga o'zgartirish, ma'naviy va mafkuraviy qadriyatlar uyg'unligida amalga oshirishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Jumladan, mamlakat tarixi va hozirgi yutuqlarini butun dunyoga targ'ib qilishda va shu orqali davlat imiji, obro'sini oshirishda ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan to'g'ri va maqsadli foydalanish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, hozirda rivojlanishning yangi davrini boshlagan mamlakatimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadigan shaxs ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'sirini tizimli ravishda tadqiq etish ehtiyoji ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshiradi.

Ushbu maqolada globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoq tushunchasi mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, turli ijtimoiy tarmoqlardagi ijtimoiy-siyosiy, diniy-mafkuraviy, ommaviy madaniyatning turli ko'rinishlari va uning jamiyat xavfsizligiga ta'siri masalalari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: jamiyat, xavfsizlik, tahdid, globallashuv, internet, ijtimoiy tarmoq, siyosiy dunyoqarash, axborot, siyosiy madaniyat.

Аннотация: Информационные технологии применяются во всех сферах человеческой деятельности в условиях стремительной глобализации в мире. В частности, массовые телекоммуникационные технологии стали важной реальностью современной цивилизации, поднялись до уровня значимого средства потребности и предмета. Сегодня гомогенизация информационного пространства является результатом широкого распространения научно-технических и технологических достижений, их служения общему развитию, а также роли социальных сетей в формировании имиджа страны, все более усиливается широкая пропаганда общечеловеческих достижений стран в мировом медийном пространстве. Однако популяризация

аморальных представлений о человеческой ценности, влияние чуждых представлений на мировоззрение человека ведет к отчуждению от своих национальных традиций и самобытности. Очень важно определить влияние, последствия и направления угроз этих факторов на мировоззрение личности через социальные сети.

Политическое сознание, политические ценности охватывают процессы политической культуры, поведения и социализации граждан в развитых странах, ведутся исследования идеологического воспитания как явления, укрепляющего фактор доверия в обществе, а также осуществляются открытие и внедрение инновационных технологий, направленных на формирование имиджа страны. В этих исследованиях рассматриваются идеологические ловушки, негативно влияющие на процессы глобализации в мире и их воздействие на культурный фактор; манипулирование человеческим сознанием через социальные сети и акцентирование на каком-либо поведении, национальных интересах, посягательстве на политические ценности, историю человечества; поиск политических, правовых и социальных решений для предотвращения попыток уничтожить его память стал приоритетом. В связи с этим создание информационного общества, успешное осуществление реформ в сфере информационно-коммуникационных технологий, как и во всех сферах общественной жизни, прежде всего, совершенствование политических, социальных и правовых основ этих сфер является одной из насущных, срочных задач.

В условиях нового Узбекистана необходимо изменить влияние социальных сетей на формирование общественно-политического мировоззрения личности в положительную сторону, реализовать его в гармонии с духовно-мировоззренческими ценностями. В частности, проведена значительная работа по правильному и целесообразному использованию социальных сетей для популяризации истории и современных достижений страны на весь мир, тем самым повышая имидж и репутацию государства. Также актуальность данного вопроса повышает необходимость системного исследования влияния социальных сетей на формирование общественно-политического мировоззрения человека, что имеет большое значение для нашей страны, вступившей сейчас в новую эпоху развития.

Ключевые слова: общество, безопасность, угроза, глобализация, Интернет, социальная сеть, политическое мировоззрение, информация, политическая культура.

Abstract: Information technologies are used in all spheres of human activity in the context of rapid globalization in the world. In particular, mass telecommunication technologies have become an important reality of modern

civilization and have risen to the level of an important means of need and subject of mass communication in developed countries. Today, the homogenization of the information space is the result of the widespread of scientific, technical and technological achievements, their contribution to general development, as well as the role of social networks in shaping the image of the country, the widespread promotion of the universal achievements of countries in the global media space is increasingly intensifying. However, the popularization of immoral views of human value and the influence of alien ideas on a person's worldview leads to alienation from one's national traditions and identity. It is very important to determine the influence, consequences and directions of threats of these factors on the worldview of an individual through social networks.

Significant scientific research is being carried out in connection with the political consciousness, political values, covering the processes of political culture, behavior and socialization of citizens in developed countries, ideological education as a phenomenon that strengthens the trust factor in society and also discovery and implementation of innovative technologies aimed at developing the country's image through ideological education and social networks. These studies examine ideological traps that negatively affect the processes of globalization in the world and their impact on the cultural factor; manipulation of human consciousness through social networks and an emphasis on any behavior; national interests, encroachment on political values, researching political, legal and social solutions to prevent attempts to destroy the historical memory of mankind has become a priority. In this regard, the creation of an information society, the successful implementation of reforms in the field of information and communication technologies, as in all spheres of public life, and above all, the improvement of the political, social and legal foundations of these areas is one of the urgent tasks.

In new Uzbekistan, it is necessary to change the influence of social networks on the formation of an individual's socio-political worldview in a positive direction, to implement it in harmony with spiritual and worldview values. In particular, significant work has been done on the proper and purposeful use of social networks to popularize the history and modern achievements of the country throughout the world, thereby increasing the image and reputation of the state.

Also, the relevance of this issue increases the need for a systematic study of the influence of social networks on the formation of a person's socio-political worldview, which is of great importance for our country, which has now entered a new era of development.

This article reveals the essence of the concept of social network in the context of globalization. Also, various aspects of socio-political, religious-ideological, popular culture in

various social networks and its influence on the security of the society were studied.

Keywords: *society, security, threat, globalization, Internet, social network, political worldview, information, political culture.*

KIRISH

Jamiyatda axborot ham bilim manbai ham eng asosiy muloqot vositasi bo'lib hisoblanadi. Jamiyatni axborotlashtirishda radio, televideniye, ommaviy-axborot vositalari va Internet tizimining ahamiyati juda yuqoridir. Har kim har doim biror ishni bajarish yoki biror maqsadga erishish uchun axborotdan foydalanadi. Har bir inson ob-havo prognozini, transport vositalari qatnovi jadvalini, bank va biznes ma'lumotlarini hamda kundalik yangiliklardan xabardor bo'lishga muxtojdir. Agarda inson kundalik axborotlar va yangiliklardan xabardor bo'lmas ekan u jamiyatdan uzilib qolishi muqarrar. Aytish joizki, internetning axborot maydoni kun sayin kengayib, axborot manbalari tez-tez yangilanib turadi. Bu esa, o'z navbatida, taraqqiy etishimizda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Internet siyosiy munosabatlar tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham bu tizimni boshqarish masalasi rivojlangan davlatlarning asosiy maqsad va vazifalari hisoblangan. XX asrning 90-yillari oxiridan boshlab internetning ijtimoiy-siyosiy boshqaruv tamoyillari nuqtai-nazardan o'rgangan bir qator ixtisoslashgan tadqiqot institutlari va tashkilotlari ish boshlagan. Bular orasida Oksford Universitetidagi Internet tadqiqotlar instituti (Oksford Internet instituti), Stenford universiteti Internet va jamiyat markazi, Berkman Harvard Universitetidagi Berkman Internet va jamiyat markazi va Sirakuz Universitetidagi Internet boshqaruv loyihasi instituti alohida o'rinni egallaydi (www.oii.ox.ac.uk).

USLUBLAR

Rossiyalik olimlar M.A.Basin va I.I.Shilovich tomonidan "Sinergetika va Internet" kitobida Internet atamasining etimologik tahliliga alohida o'rin berilgan, natijada Internetni tushunishning 5 bosqichi ajratib ko'rsatilgan. Birinchidan, bu texnik bosqich. U tor sohadagi texnik mutaxassislar tomonidan tahlil qilinadi. Ikkinchidan, bu ijtimoiy fenomen bo'lib,

sotsiologlar, psixologlar va antropologlar tomonidan o'rganiladi. Uchinchidan, bu axborot maydoni (axborotlar, ma'lumotlar va h.k.lar yig'indisi). U axborot nazariyasi tomonidan mutaxassislar fikricha tadqiq qilinadi. Ijtimoiy tarmoqni tushunishning to'rtinchi va beshinchi bosqichlari siyosiy boshqaruv tizimiga yaqinlashadi va hatto unga mos keladi (**Басин М.А., Шилович И.И., 1999:71**). Bu gipotetik tacavvurlardir. Bizning nazarimizda, ayni shu bosqich internet texnologiyalarining afzalliklari davlat apparati xodimlarining ijodiy salohiyatini boshqaruvning asosiy funksiyasi tegishli siyosiy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishga qaratish imkoniyatini berib, siyosiy boshqaruv apparatini to'plash, jamlash va unga dastlabki ishlov berish bo'yicha ko'plab eskirgan funksiyalar bajarilishidan bevosita ozod qilishga olib kelishini anglatadi.

Zamonaviy jamiyat barqarorligini ta'minlashda siyosiy texnologiyalari zarur bo'ladi, ularning tabiati internetga asoslanadi. Shu boisdan ham siyosiy barqarorlikni ta'minlashda internet texnologiyalari butunlay yangi geometrik rivojlanish yo'liga o'tdi (**Курбалий И., Гелбстайн Э., 2005:4**). Oqibatda internet siyosiy kommunikatsiyaning asosiy hodisasiga aylandi. "Internet kommunikatsiyalar", "Elektron hukumat", "Elektron demokratiya", "elektron davlat", "elektron fuqaro" tushunchalarining paydo bo'lishi ayni shu voqelikning mahsulidir (MacLean D., 2005:393). Mazkur tushunchalar keng qamrovli bo'lib ular qolgan deyarli barcha siyosiy ta'riflarni ham o'z ichiga qamrab oladi (Kleinwachter W., 2007:294).

MUHOKAMA

Internet – bu internet texnologiyasi, dastur ta'minoti va qaydnomalari asosida tashkil etilgan, hamda ma'lumotlar bazasi va elektron xujjatlar bilan kollektiv ravishda ishlash imkonini beruvchi davlat va jamiyat miqyosida yangi siyosiy boshqaruv muhitini tashkil etuvchi global tarmoqdir (Dutton W., M. Peltu., 2005:5). Bunday boshqaruv jarayonida davlat birlashtiruvchi funksiyani bajaradi. Jamiyatning har xil sub'yektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning siyosiy onlayn sxemasi davlat va fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruv tizimidagi o'zaro sheriklik asosida amalga oshadi. Shu jihatdan Manuel' Kastel'sning fikrlari diqqatga sazovor: "Axborotlashgan jamiyatda, - deb

yozadi u, -hokimiyat fundamental pog'onada madaniy kodlarga kirib boradi. Odamlar va institutlar esa ular orqali hayotni tasavvur etadi hamda tegishli qaror, jumladan, siyosiy qarorlar qabul qiladi. Shu ma'noda, hokimiyat, u real bo'lganda, nomoddiy bo'ladi" (**Кастельс М. 2000:502-508**).

Jahon tarixining hozirgi bosqichida aloqa vositalarining rivojlanishi, internet, elektron pochta, kosmik teleradio aloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalarining kuchayishi natijasida axborot almashinuvi tezlashib, siyosiy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda.

Ijtimoiy tarmoq tushunchasi. Tarkibi, faqatgina ishtirokchiladan iborat va ular orasida muloqatni o'rnatuvchi, ko'p foydalanuvchili interaktiv veb saytlar asosida yaratilgan tarmoq ijtimoiy tarmoq deb tushuniladi. Mazmuniga ko'ra ijtimoiy tarmoq ikki bosqichli bo'ladi:

1. Foydalanuvchilar orasidagi muloqatni o'rnatib beruvchi dasturiy - apparatli kompleks;

2. Foydalanuvchilar orasidagi umumiy qiziqishlarni aniqlash, guruhlar orasidagi muloqat internet tarmog'i orqali bajarilishi.

Ijtimoiy tarmoqlarning maqsad va vazifalari. Ijtimoiy tarmoqning maqsadi internetda o'zaro qiziqishlar yoki faoliyatga ega shaxslar bilan hamjamiyatlik qurishdan iborat. O'zaro aloqa ichki pochta yoki xabar almashish tizimi orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy tarmoqlar ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoq xususiyatlarining biri – do'stlar va guruhlar tizimi (**O'lmasxo'jayev Z. 2023:5**).

Mashhur ijtimoiy tarmoq veb saytlari Ijtimoiy tarmoqlarning foydalanuvchilari soni bo'yicha reytingi Facebook, MySpace Twitter, Windows Live Spaces Habbo Hotel, V Kontakte Friendster, Hi, Tagged.com mashhur ijtimoiy tarmoqlarning logotiplari.

Odnoklassniki (odnoklasniki.ru) ijtimoiy tarmog'i saytining ro'yxatdan o'tish sahifasi.

Sinfdosh ijtimoiy tarmog'i ushbu veb sahifa Odnoklassniki (odnoklasniki.ru) ijtimoiy tarmog'i yaratilishi maqsad va vazifalari bilan bir xil bo'lib, faqatgina O'zbekistonlik fuqoralar uchun yaratilgan va moslashtirilgan.

Feysbuk (facebook.com) ijtimoiy tarmog'i ushbu veb sahifa ham Odnoklassniki (odnoklasniki.ru), ijtimoiy tarmog'lari yaratilishi maqsad va vazifalari bilan bir xil bo'lib, faqatgina ingliz tilida so'zlashuvchilar uchun

yaratilgan va moslashtirilgan (<http://www.myshared.ru/slide/1325100/>).

XX asrning eng katta kashfiyoti kompyuter va telefon bo'lsa, XXI asrniki esa ijtimoiy tarmoqlardir. Ya'ni, internet, telegram, yutub, feysbuk va hokazo. Bular insoniyatga katta qulayliklar tug'dirdi.

Yoshlar internet orqali xorijiy tillarni, fanlarni, kasb-hunarlarini o'rganmoqda. Shu jihatdan ijtimoiy tarmoqlar, internetning foydasi, yaxshiligi, ahamiyati juda katta. Ammo, shu bilan birga, dangasalar, ishyoqmaslar, yomonlar, buzg'unchi kuchlar, jinoyatchilar uchun internet juda qulay qurol, juda arzon vosita, juda kuchli ta'sir vositasiga aylandi.

Tanganing ikkinchi tomoni ham bo'lganidek, hamma kashfiyotdan, qulayliklardan yomon niyatda foydalanuvchilar ham paydo bo'lar ekan. Internet orqali yomonliklarni tarqatish bor ekan, demak, aholini, yoshlarni o'sha yomonliklardan ogoh qilish, himoya qilish lozim. Bu ishni har birimiz qilishimiz kerak.

Qur'oni Karimda: "(Ey Muhammad s.a.v.) eslatib, ogoh qilib turing, chunki

ogoh qilib, eslatib turish mo'min musulmonlarga albatta foyda (manfaat) keltirur"

(Zoriyot surasi, 55-oyat) (<http://fitrat.uz/izhtimoiy-tarmo-hatarli-armo/>), deb marhamat qiladi. Bu xitob hamma uchun.

Agar odamlar ogoh etib turilmasa, fasod, buzg'unchilik ko'payadi. Buni ayrim davlatlarda kuzatilgan va ayni paytda ham davom etayotgan xunrezliklar misolida ko'rish mumkin. Shukrki, mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik hukm surmoqda. O'zbekiston "Baxtli mamlakatlar" reytingida 42-chi o'rinda ekan. Bu 250 davlat orasida juda yaxshi ko'rsatkich (<http://fitrat.uz/izhtimoiy-tarmo-hatarli-armo/>).

Internet, telegram, facebook, youtube – tubsiz ummon, cheksiz olam. Shu vositalar chiqqanidan beri odamlar, qavm-qarindoshlar o'rtasida, mehr-oqibat ko'tarilib, hurmat yo'qolmoqda. Bugun ijtimoiy tarmoqlar – yutub, internet, telegram, facebook qaysidir ma'noda "qotil"ga aylandi. "Vaqtning qotili"ga... Insonlar qimmatli vaqtlarini ko'kka sovrarmoqda.

Hadisi sharifda: "Qiyomat kuni odam bolasi to'rt narsa haqida so'ralmagunicha joyidan jilmaydi: 1) umrini nima bilan o'tkazgani; 2) yoshlik davrida nima bilan mashg'ul bo'lgani; 3) mol-dunyoni qayerdan topib, qayerga sarflagani hamda 4) bilgan (o'rgangan,

eshitgan) ilmiga qanchalik amal qilgani” (Imom Termiziy rivoyati) (<http://fitrat.uz/izhtimoiy-tarmo-hatarli-armo/>).

Bir inson ertalab yoki kechqurun feysbukka kirs, yangilik ketidan yangilik, xabar ketidan xabar, video ketidan video chiqaveradi – oxiri yo‘q. Qarasa, tong otib yoki kech kirib qoladi.

Eng yomoni, ijtimoiy tarmoqlar orqali faxsh ishlar tarqalmoqda. Yigit va qizlarning ibosi, hayosi yo‘qolmoqda. Oila, nikoh haqidagi muqaddas tushunchalar yo‘qolmoqda. Bir-biriga nomahram insonlar o‘rtasida muloqot, turli aloqalar avj olmoqda. Elektron do‘stlik, elektron muhabbat, elektron zino avj olmoqda.

So‘ngi paytlarda butun dunyo ko‘radigan, o‘qiydigan ijtimoiy tarmoqlarda milliy mentalitetimizga, qadriyatlarimizga zid xabarlar tarqalyapti. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, degan narsalar unutib qo‘yilmoqda. Sharmu hayodan yiroq, muomala va kiyinish madaniyati toptalgan, ona tilimizga hurmatsizlik singari noxush holatlar ko‘zga tashlanmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiy tarmoq odobi kishi dilini xira qiladi.

Kezi kelganda shuni taassuf bilan qayd etish lozimki, ijtimoiy tarmoqlar ayrimlar uchun o‘ch olish, birovni sharmanda qilib huzurlanish manbai bo‘lib qolmayaptimi? Hatto ko‘pgina tovlamachilik jinoyatlarini ham keltirib chiqarmoqda. Ya‘ni, suratga yoki videotasvirga olib, ijtimoiy tarmoqda tarqatish bilan qo‘rqitib, kimdandir pul undirishga urinayotgan, oqibatda jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarning qilmishiga ham guvoh bo‘lyapmizku. Ana shunday tovlamachilik natijasida o‘z joniga qasd qilish holatlari ham yo‘q emas.

Noxush va yolg‘on xabarlar. U xoh internet saytlari, xoh boshqa ijtimoiy tarmoqlar bo‘lsin, har kuni noxush, odamlarni vahimaga soladigan, har qanday kishining kayfiyatini buzadigan mujdalarga ko‘zimiz tushmay iloji yo‘q. E‘tibor bering-a, “Namanganda “Gazel” yo‘lni kesib o‘tayotgan velosipedchini urib yubordi. Jabrlanuvchi shifoxonada vafot etdi”, “Samarqandda Spark piyodalar yo‘lakshasidan o‘tayotgan ayolni urib yubordi”, “Qashqadaryoda Nexia-3 urib yuborishi oqibatida velosiped mingan bobo va nabira vafot etdi”, “Qornimga qaychi yoki pichoq tiqib o‘zimni o‘ldirishim kerakligini aytdi” — “Qashqadaryoda nomusi toptalib, 15 yoshida ona bo‘lgan o‘quvchi qiz”, “Toshkentda

o‘z farzandining murdasini yoqib yuborib, so‘ng uning yo‘qolgani haqida xabar bergan ayolga sud hukmi o‘qildi”, “Surxondaryoda nabira buvisining qo‘ylarini o‘g‘irladi”, “Sirdaryoda ikki kishi bir qizni fohishalikka sotmoqchi bo‘ldi”, “Buxoroda jazmanini qo‘rqitib, undan pul undirmoqchi bo‘lgan qiz ushlendi”, “Toshkentda haydovchi yuk mashinada ayolni urib ketdi (video)”, “Qashqadaryoda bobo o‘z nabirasini pichoqlab qo‘ydi”, “Jizzaxda ayol uch kishi tomonidan zo‘rlandi”, “Qamchiq dovonida yuk mashinasi ag‘darilib ketdi”. Bu ro‘yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin. Go‘yoki respublikamizning hamma nuqtasi notinchdek. Agar o‘sha xabarlarini o‘qimasak ham sarlavhasining o‘ziyoq sizni bizning asabimizni taranglashtiradi. Kun bo‘yi kayfiyatimizga ta‘sir qiladi. Axir bunday noxushliklar farzandlarimizning ruhiyatini, tarbiyasini buzmaydimi? Yoki qotillikdek o‘ta og‘ir jinoyatlar yoshlarimiz uchun oddiy holga aylanib, ularning diydasi qotirib qo‘ymaydimi? (<http://hudud24.uz/ijtimoiy-tarmok-odobi/>)

Vaholanki, maqtansak, jamoatchilikka, dunyo afkor ommasiga ko‘z-ko‘z qilsak arziydigan yangilik va muvaffaqiyatlarimiz, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarimiz, boy ilmiy hamda ma‘naviy merosimiz, xullas, ibrat olgulik jihatlarning son-sanog‘i yo‘q-ku yurtimizda. Eng muhimi, Yevropa va okean orti mamlakatlari madaniyatni, ilmu hunarni sharqdan, xususan, bizning ajdodlarimizdan o‘rgangan. Albatta, biz ulardan ibrat olishimiz kerak.

Ijtimoiy tarmoqlarda jamoatchilikni chalg‘itadigan, aholi orasida shov-shuvlarni, g‘iybat va muhokamalarni keltirib chiqaradigan yolg‘on xabarlar ham oz emas. Aytaylik, biror-bir voqelikni oldindan bashorat qilib, qonuniy va aniq asosga ega bo‘lmagan yoxud og‘ir kasallikdan davolanayotgan qaysidir taniqli shaxsni “o‘ldi”ga chiqarish singari yolg‘on xabarlar hammani chalg‘itadi. Hatto turli noroziliklarni ham yuzaga keltiradi. Ularni tarqatayotganlarga qarata aytmoqchimizki, O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi hamda Jinoyat kodeksida yolg‘on xabar tarqatganlik uchun ma‘muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan. Shu bilan birga ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo‘lgan oq va qora piar qilish kengayib borishi noxush va yolg‘on xabarlar, mish-mishlar siyosiy texnologiyalarning o‘ziga xos mahsulotiga aylanmoqda, shu bilan birgalikda jamiyatning tinchlik va barqarorligiga tahdid

bo'lmogda. Jumladan, "oq" piarga biror-bir siyosiy shaxsning imijini yuksak darajada ijobiy va bekamiko'st qilib jamiyatdagi siyosiy jarayonlarga taqdim etish (saylov kampaniyalarida). Odatda "qora" piar ijtimoiy tarmoqlarda siyosiy jarayonlarda ishtirok etayotgan shaxs yoki tashkilotning imijiga yolg'on, tuxmat va bo'xton axborotlar yordamida obro'sizlantirib, ularga qarshi jamiyatning salbiy fikrini shakllantiradi (partiya va davlat rahbarlari, siyosatchilar hamda biznes vakillari o'rtasida foydalaniladigan siyosiy texnologiya).

So'kish, urish va haqorat. Ayrim mahalliy mansabdorlarning, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan qonun himoyachilarining turli majlislarda o'z qo'l ostidagi xodimlarni so'kib haqoratlashishi? Axir bu nafaqat o'sha rahbarning, balki u xizmat qilayotgan tizimning ham obro'siga putur yetkazadi-ku. Yurtimizdan tashqaridagi ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari davlat xizmatchisining bu taxlit madaniyatsizligiga kulmaydimi? (Султонов Х. Ижтимоий тармоқ одоби. <http://hudud24.uz/ijtimoiy-tarmok-odobi/>).

Ayniqsa, haqorat qilganlik uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 41-moddasida "Haqorat qilish, ya'ni shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish - bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi" (**ЎР МАЪМУРИЙ ЖАВОБГАРЛИК ТЎҒРИСИДАГИ КОДЕКСИ. 41 модда**) hamda Jinoyat kodeksi 140-moddasida esa "...nashr qilish yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish orqali haqorat qilish - bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi" (**ЎР ЖИНОЯТ КОДЕКСИ. 140 модда**) deya belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, ayrim ustoz-murabbiylar va bog'cha tarbiyachilarining o'quvchilarni, bolajonlarni urgani haqidagi videotasvirli xabarlarini o'qib, ko'rib qolamiz. Shu bilan birga, so'nggi paytlarda o'qituvchilarning ota-onalar tomonidan, shifokorlarni esa bemorning yaqinlari tomonidan kaltaklanganiga oid xabarlar ijtimoiy tarmoqlarda kun mavzusiga aylanmogda. Qashqadaryodagi kaltaklangan o'qituvchi yoki Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi

ginekolog ayolning sobiq ichki ishlar organi xodimi tomonidan sochidan sudrab, tan jarohati yetkazilishi jiddiy muhokamalarga sabab bo'ldi (Султонов Х. Ижтимоий тармоқ одоби. <http://hudud24.uz/ijtimoiy-tarmok-odobi/>).

Ana sizga insonning tafakkuri, qalbi hamda jismi joniga malham bo'layotgan kishilarga munosabat! Prezidentimiz tomonidan maktab ta'limiga, o'qituvchilarning maqomini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilayotgan yoxud tibbiyot tizimi isloh qilinib, shifokorlar mehnati qadrlanayotgan bir paytda yuqoridagi singari noxush holatlardan hamyurtlarimizning dili ranjimoqda.

Hozirgi kunda jamiyatning ayrim sohalari uchun mumkin bo'lgan axborot makonidan foydalanishga mo'ljallangan ochiq axborot tizimi jamiyatni boshqarishning siyosiy mexanizmlarini takomillashtirishga, ayniqsa uni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishga hamda jamiyat a'zolarining turmush darajasini yuksaltirishga olib kelmogda. Jamiyatni axborotlashtirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar nafaqat ilmiy-texnik taraqqiyotni rivojlantirishga, balki insoniyatning barcha turdagi faoliyatini intellektuallashtirish, sifat jihatidan butunlay yangi axborot muhitini yaratishga imkon yaratib, shaxs ijodiy potensialining rivojlanishini ta'minlamoqda.

D.Bell ta'kidlashicha, ikkinchi ming yillikning oxiriga borib, faqatgina ikki mamlakat axborotlashgan, postindustrial jamiyatga aylana oldi, bular AQSH va Yaponiyadir. Aynan shu mamlakatlarda yuksak texnologiyalar deb ataluvchi ilmiy bilimni oxirgi mahsulotga aylantiruvchi ilmiy salohiyat mavjud edi (**Белл Д., 2004:790**). Boshqa G'arb mamlakatlari esa ishlab chiqarishdan xizmat sohasiga o'tayotgan edi. Demak, axborotlashgan jamiyatning asosiy belgilaridan biri, yangi axborot to'plash, zarur axborotni topish va axborot almashuvining hech qanday chegarasiz tarqatishdan iborat. Shu ma'noda, global axborot jamiyatining Okinava xartiyasida (xartiya – muhim siyosiy-jamoatchilik ahamiyatiga ega bo'lgan hujjat) jumladan shunday deyiladi: "Axborot-kommunikatsion texnologiyalar yigirma birinchi asr jamiyatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Ularning revolyutsion ta'siri odamlarning turmush tarziga, ularning ma'lumoti va ishiga, shuningdek hukumat va fuqarolik jamiyatlarining o'zaro harakatlariga tegib o'tadi" (<http://www.iis.ru/library/okinawa/>).

NATIJA

Jamiyat xavfsizligi ijtimoiy institutlar, normalar, ijtimoiy turmushni yo'lga qo'yishning rivojlangan shakllari, mustaqillikni saqlash va ko'paytirib borish huquqi va imkoniyati kabilarning mavjud bo'lishini taqozo etadi (Faфyров С., 2007:12).

Shaxs xavfsizligi himoyalanganlikning shunday holatini bildiradiki, bunda shaxs ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy hayotga uyg'un tarzda qo'shilib, o'zini namoyon etishi mumkin va kerak bo'ladi.

Jamiyat siyosiy hayotining hozirdagi internet bilan bevosita bog'liqligi internetning ta'sir darajasini oshiruvchi omildir. Ushbu ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi internet tarmog'ining xususiyatlari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

Birinchidan, "globallik — turli davlatlar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy mazmundagi tezkor axborotlar almashish imkoniyatining mavjudligi. Bunda eng yangi siyosiy xabarlardan ham voqif bo'lish, (lekin doim ham yangiliklar rivojlanish, qulaylik, tinchlik, totuvlik va turli ijtimoiy munosabatlar iqlimi kabi jihatlarga zarar yetkazmaydi, deyish qiyin).

Ikkinchidan, markazlashmaganlik — internetning boshqa OAVdan farqli ravishda nazoratning yo'qligi, geografik joylashuvning ahamiyatsizligi va buning oqibatida to'siqsiz ravishda monopoliya yoki davlat nazoratisiz ixtiyoriy axborotni tarqatish imkoniyatini mavjudligi.

Uchinchidan, ochiqlik — axborot tarqatish, almashish, yaratish uchun kuchsiz to'siqlar va past narx-navoning mavjudligi bilan alohida ajralib turadi.

To'rtinchidan, siyosiy jarayonlarni mustahkamlashga qaratilgan cheksiz axborotlarni saqlash imkoniyatining mavjudligi. Bunda siyosiy axborotlarning sifat ko'rsatkichi davlat xavfsizligini ta'minlash darajasida bo'lishi zarur.

Beshinchidan, davlatlar o'rtasidagi konstruktiv siyosiy muloqotni ta'minlash, ushbu muloqotdan ko'zda tutilgan siyosiy maqsad va g'oyadan kelib chiqib yangi qiyofadagi siyosiy muzokaralarni yo'lga qo'yish mumkinligi.

Oltinchidan, internetdagi infrastrukturaviy erkinlikning siyosiy munosabatlarda aks etishi. Infrastrukturaviy erkinlik bu siyosiy axborotlarni markazlashmaganlik hamda ochiqlik ta'riflari bilan bog'lash mumkin" (Сенченко Н.И., 2016:290).

Bu global axborot tarmoqlarining shakllanishi, birinchi navbatda — internet axborot makonini "professional siyosiy segmentasiyalashishidan" iboratdir. Chunki ma'lum bir professional siyosiy hamjamiyat a'zolari onlayn rejimida o'z resurslarini taqdim qilish uchun umumiy standartdan foydalanadilar. Bu ularga xususiy axborot resurslardan (WEB-saytardan) qo'shimchalar va yangilanishlarni o'rnatilgan muntazamlilik bilan yagona ma'lumotlar bazasiga to'playdigan tarmoq servisini ishga tushirish imkonini beradi. Agar bu resurslar tizimiga professional siyosiy hamjamiyatning barcha axborot resurslari kiritilgan bo'lsa, u holda ushbu integral ma'lumotlar bazasiga siyosiy axborotlarni kelib tushishini nazorat qilishni resurslarning boshlang'ich ko'pligining mazmunini nazorat qilish bilan almashtirish mumkin bo'ladi.

Internet tarmog'ida virtual koalitsiyalarning paydo bo'lishi ham ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni yangicha shaklda olib borilishiga sabab bo'lmoqda. Bunday munosabat esa global axborot makoni uchun xarakterli bo'lgan geosiyosiy raqobatni yuzaga keltirmoqda. Geosiyosiy raqobatning global va hududiy daraja — davlatlar va davlatlararo har xil koalitsiyalar darajasida amal qiladigan an'anaviy sub'yektlaridan tashqari, axborot makonida geosiyosiy kurashni ham o'z ichiga oladigan prinsipial yangi "virtual" ittifoqlar va koalitsiyalar vujudga keladi, ularga davlatlar, faoliyat ko'lamlari global xarakterga ega bo'lgan (ya'ni kattagina geografik hududlarni yoki axborot makonining sigmentlarini qamrab oladigan), faoliyat natijalari esa xalqaro darajada davlatlar va ularning koalitsiyalarining siyosatiga ta'sir ko'rsatadigan oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan transmilliy korporatsiyalar, media-xoldinglar va hokazolar teng huquqlar asosida kirayotganligi dunyoning siyosiy manzarasini yangicha talablar asosida muhokama qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda (Хомский Ноам, 2015:320).

Bizning nazarimizda, internet tarmog'iga xos xususiyatlarga quyidagilar kiradi: Internetga kirish imkoni bo'lgan deyarli barcha davlatlarning fuqarolari bilan aloqa o'rnatish imkoniyatining mavjudligi;

kommunikativ harakatlar ustidan davlat nazoratini amalga oshirishdagi qiyinchiliklar; multimedia muhiti (matn, audio va video fayllarni birlashtirish qobiliyati); interaktiv hisobot;

anonimlik; axborotni tarqatishning tez va moliyaviy yo'qotilishi va boshqalardir.

Bulardan ma'lum bo'ladiki, bugungi zamonaviy onlayn-aloqa texnologiyalari jamiyatning siyosiy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda internet texnologiyalari insonning kundalik hayotiga shu qadar yaqinlashib qolganki, onlayn muhitda sodir bo'lgan hodisalar siyosiy hayotda ham o'z ifodasini topmoqda. M.Kastellsning aytishicha, bu tendensiya ijobiydir, chunki u jamiyatni demokratlashtirish jarayonini yanada yuksalishiga olib boradi. "... Interaktivlik fuqarolarga haqqoniy axborot olishga, fikrlarini bildirishlariga va o'z vakillarining shaxsiy javob berishini talab qilishga imkon beradi. Ilgari davlat faqat o'z sub'ektlariga bo'ysundi va hozirgi kunda odamlar davlat hokimiyatini boshqarishi mumkin, aslida ular nazariy jihatdan kosmik ustalardir" (**Кастельс М.**, 2017:56). Biroq, ba'zida haqiqat bizga teskari trendni ham namoyon etmoqda. Zamonaviy internet texnologiyalarning rivojlanishi siyosiy kuchlarga odamlarga manipulyatsion ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini ham ochib berdi. Odamlar o'zlarining mavqeini saqlab qolishga intilayotgan hokimiyat yoki hokimiyatdagi siyosiy rejimni beqarorlashtiradigan boshqa muxolif kuchlar tomonidan manipulyatsiyaga ham uchrayotganligini inkor qilib bo'lmaydi.

Okinava Xartiyasida ta'kidlanishicha, axborot kommunikativ texnologiyalar jahon iqtisodi rivojlanishining muhim stimulidir. Chunki, ular axborot va bilim, kapital va mehnatning jahon bozori faoliyatini ta'minlovchi muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu haqda I.A. Negodayev shunday yozadi: "Axborot qurolining universalligi, yashirinligi, dasturiy apparat amalga oshirilishi shakllarining ko'p variantligi, ta'sirlarning radikalligi, vaqt va joy tanlash imkonining yetariligi va nihoyat tejamliyligi, uning juda xavfsizligini ko'rsatadi: u osongina himoya tizimiga yashirinishi mumkin, urush e'lon qilmasdan anonim shaklda hujum harakatlarini olib borishi mumkin. Hozirgi davrda ishlab chiqarish va boshqarish, mudofaa va aloqa, transport va energetika, moliya va fan, ta'lim, OAV - barchasi axborot almashinuvi jadalligiga, haqqoniyligiga, to'liqligi va tezligiga bog'liq. Shuning uchun jamiyatning axborot infrastrukturasi – axborot qurolining ob'yektiga aylangan" (Негодаев И.А., 1999:135).

2016-yilda Qrator Labs kompaniyasi olib borgan tadqiqotlariga ko'ra Buyuk Britaniya, AQSH va Rossiya internet tarmog'i eng barqaror mamlakatlar uchligidan o'rin olgan edi. Mazkur kompaniya olib borgan

tadqiqotlari asosida milliy sigmentning barqarorligini mamlakat uchun muhim bo'lgan operatorga bog'liqlik jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, Runet asosan "Rostelekom"ga tayanadi, uning faoliyatidagi nosozliklar Rossiya tarmoqlarini 5,5 foizini ishdan chiqargan bo'lardi. Ikkinchi o'rinni AQSH egalladi — TATA operatoridagi buzilishlar mahalliy tarmoqlarning 5 foizida muammo tug'diradi xalos. Buyuk Britaniya milliy sigmenti esa eng barqaror deb topildi: Virgin Media ishida nosozliklar yuzaga kelsa, mahalliy tarmoqlarning atigi 3,4 foizi aloqasiz qoladi. Qrator Labs bosh direktori Aleksandr Lyamin fikricha, qanchalik ko'p o'rtacha ko'lamdagi operatorlar transchegaraviy o'tish imkoniga ega bo'lsa, milliy sigment faoliyati shunchalik barqaror bo'lib boraveradi. Rossiyada 20—30 operator shunday imkoniyatiga ega, shu bois mamlakatda internetni himoyalangan deb hisoblash mumkin (<https://qrator.net/ru/>).

Irlandiyaning Okla kompaniyasiga qarashli Speedtest.net internet-servisi Speedtest Global Index har oylik reytingni e'lon qildi. Unda 2019-yil yanvar oyi yakunlari bo'yicha dunyodagi mobil va simli internet tezligi haqida ma'lumotlar bor.

Servis reytingga o'nlab yangi davlatlarni qo'shdi, shuning uchun ko'plab mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekistonning pozitsiyalari pasayib ketdi.

"Mobil internet tezligi bo'yicha O'zbekiston 137 davlat ichida 129-o'rinni egalladi (8,80 Mbit/s). Simli internet tezligi bo'yicha mamlakat 177 pog'onadan 131-o'rinni egalladi (11,31 Mbit/s). Shu tariqa, O'zbekiston reytingda mobil internet bo'yicha 18 pog'onaga, simli internetda esa 23 o'ringa pastlagan.

Islandiya mobil internet tezligi bo'yicha (73,93 Mbit/s), Singapur simli internet tezligi bo'yicha (197,94 Mbit/s) birinchi o'rinni egalladi.

O'zbekistonda 2018-yilning sentyabr oyi boshida Facebook'dan foydalanishda muammolar yuzaga keldi, oktyabr oyidan esa YouTube portaliga ham yordamchi vositalarsiz kirib bo'lmay qoldi" (<https://qrator.net/ru/>).

Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan telekommunikasiya xizmatlari tezligi va sifatini oshirish, telekommunikasiya infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan 2019-2023-yillarga mo'ljallangan Milliy dastur loyihasi ishlab chiqilgan va hozirgi kunda kelishish jarayonida.

Dasturga asosan:

– **120 000 kilometr**dan ortiq optik tolali aloqa liniyalari qurilishi;

– 6 000 dan ortiq mobil aloqa baza stansiyalari qurilishi;

– keng polosali tarmoq sig‘imi **1,5 million portga** kengaytirilishi;

– ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlari sig‘imi kengaytirilishi va yangilarining qurilishi;

– tashqi internetga ulanish qobiliyatini qo‘shimcha **10 barobar** oshirish;

– simsiz ma’lumot uzatish – Wi-Fi tarmoqlarini keng joriy qilishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan (<http://www.xabar.uz/tehnologiya/ozbekiston-internet-tezligi-boyicha>).

Siyosiy jihatdan qaraganda, hayotimiz mazmuniga internet kundan kunga katta ta’sir o‘tkazmoqda, xususan, inson internetga nafaqat o‘zining jismoniy va ijtimoiy hayotini, balki virtual internet mavjudlikni ham kuzatishga to‘g‘ri kelmoqda. Oxir oqibatda bu unchalik yomon emas, inson shu tarzda o‘z istagiga ko‘ra ikki hayotni boshidan kechirishi, yangi imkoniyatlar, g‘oya va vositalar topgan holda ularni ham mavjud, ham virtual olamda qo‘shib olib borish uchun yangi imkoniyatlar topishi mumkin.

Internet tufayli insoniyatning hayot tarzi o‘zgarmoqda hamda inson faoliyatining asosiy sohalarida iqtisodiyotda, siyosatda va fanda global o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu o‘zgarishlar G‘arb olamida boshlandi, O‘zbekistonimizda ham davom etmoqda. A. Tashanovning ta’kidlashicha “... globallashuv jarayonlarining mamlakatimizga ziddiyatli ta’siri jamiyatda ijtimoiy beqarorlikka olib keladi va so‘l ekstremistik oqimlarning, shuningdek, diniy-mistik sektalarning keng tarqalishi uchun sharoit yaratadi. Boshqa tomondan, globallashuvning asosiy agentlari o‘zlarining shaxsiy axborot siyosatini diniy kanallar orqali ham olib boradi” (Ташанов А., 2017:110). Ushbu omil globallashuvning salbiy jihatlari sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xalqaro miqyosda ijtimoiy tarmoqlar va internet siyosiy kurash sub’ektlarining samarali quroliga aylangan. Siyosiy muhitni beqarorlashtirish uchun manipulyatsiya (chalgitish) monitoringi oson amalga oshiriladi u barcha qulayliklar va imtiyozlarga ega. Ayni shu holatni mutaxassislar buni bir qancha ijtimoiy-siyosiy omillar bilan bog‘lashadi. Birinchidan, arab mamlakatlaridagi siyosiy beqarorlikni yuzaga keltirishda ba’zi siyosiy kuchlar uchun internetning mislsiz darajada qo‘l kelgani, ommani yig‘ish, ularni

boshqarish imkoniyatlari, ayniqsa, tashqaridan turib bu g‘arazli niyatni amalga oshirish mumkinligi o‘zini hurmat qilgan davlatlarni tashvishlantirib qo‘ydi; Ikkinchidan, internet terrorizm, zo‘ravonlik va boshqa noqonuniy xatti-harakatlar hamda boshqa davlatlar ichki siyosatiga aralashish uchun makonga aylantirilmoqda. Uchinchidan, kibermakon endi boshqa mamlakatlarga nisbatan mafkuraviy urush va boshqa ta’sir ko‘rsatish makoni va vositaciga aylanganidir. Xususan, internetda tarqatilgan Stuxnet virusi Eron yadroviy dasturlari jarayonini birmuncha sekinlashtirib, uning ishini izdan chiqarganligi ham mana shunday xulosaga kelishga undaydi (Быков А.И., <http://www.politex.info/content/view/438/30/>).

Hozirgi vaqtda har qanday davlatning jahon hamjamiyatidagi obro‘ e’tibori, geosiyosiy mavqei, zamonaviy kompyuter texnologiyalarining rivojlanish darajasi, jumladan, telekommunikasiya tizim va tarmoqlari, dunyo axborot makoniga kirish usullari va imkoniyatlari bilan belgilanadi. Internet tarmoqlarida tarqatilayotgan axborotlardan foydalanishdan asosiy maqsad – o‘ziga xos siyosiy g‘oyalar va yo‘nalishlarni internet orqali targ‘ib qilishdir. Jumladan, aksariyat fuqarolik jamiyati institutlari va siyosiy partiyalar, siyosiy liderlarning shaxsiy saytlari, gazeta va jurnallar va mustaqil tahliliy elektron nashrlarning saytlari shunday vazifalarni bajarib kelmoqda. “Bugungi dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnik imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi, ya’ni ularning butun kurrai zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan kechmoqda. Masalan, Internet tizimi orqali axborot almashuv, binobarin, g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda. Aslida axborot sohasidagi globallashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hududlaridagi odamlarning o‘zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o‘zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir” (Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар, 2000:23).

XULOSA

Bugungi kunda jamiyatning xavfsizligini ta’minlashda, internet va ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni va ta’siri naqadar kuchli ekanligi bilinib turibdi. Zero, ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlar bilan jamiyatni barqaror taraqqiyotga yoki beqaror inqiroziga olib kelish mumkin.

Fuqarolik jamiyati shakllanishining hozirgi murakkab, mas'uliyatli davri ma'naviy-ma'rifiy ishlar, mafkuraviy ta'lim-tarbiya markazida yosh avlod manfaatlarini turishi zarurligini anglash, ularning teran fikrli, vatan manfaatlarini uchun e'tiqodli inson sifatida tarbiyalanishlarini asosiy maqsad qilish, soxta, buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolishidan asrashda informatsion madaniyat imkoniyatlaridan samarali foydalanishni taqozo qiladi.

Umuman olganda internetni yagona tilda yoki bir fan doirasida to'laqonli ta'riflashning imkoni yo'q. Shu bois mazkur ijtimoiy fenomenning fundamental, siyosiy mazmunini faqat dunyoqarash darajasidagina ochib berish mumkin.

ADABIYOTLAR:

- Басин М. А., Шилович И. И. Синергетика и Internet (Путь к Synergonet). – СПб.: Наука, 1999. -71 с.
- Быков А.И. Управление Интернетом как одна из проблем современных международных отношений. // Полнтэкс. —<http://www.politex.info/content/view/438/30>.
- Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество. Опыт социального прогнозирования/Пер.с англ.под ред. В.Л.Иноземцева. Изд. 2-е, исправл.и доп. -М.: Academia, 2004. -790 с.
- Dutton W., M. Peltu. The emerging internet governance mosaic: connecting the pieces // Discussion Paper No 5 // Oxford Internet Institute Forum. - Oxford, 2005.
- Хошимов Н. Ижтимоий тармоқ – хатарли қармоқ. <http://fitrat.uz/izhtimoij-tarmo-hatarli-armo/>
- Хошимов Н. Ижтимоий тармоқ – хатарли қармоқ. <http://fitrat.uz/izhtimoij-tarmo-hatarli-armo/>
- Хошимов Н. Ижтимоий тармоқ – хатарли қармоқ. <http://fitrat.uz/izhtimoij-tarmo-hatarli-armo/>
- <http://www.iis.ru/library/okinawa/charter.ru.html>
- <https://qrator.net/ru/>
- <https://qrator.net/ru/>
- <http://www.xabar.uz/tehnologiya/ozbekiston-internet-tezligi-boyicha>
- Internet Governance: A Grand Collaboration. / Ed by MacLean D. - N.Y.:UN ICT Task Force Series, 2005. - 393 p.
- Интернет ижтимоий тармоқ хизматлари. <http://www.myshared.ru/slide/1325100/>
- Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. –М.: Изд-во ВШЭ, 2000. -С.502 – 508.
- Кастельс М. Власть коммуникации. ГУ ВШЭ 2017. – 56с
- Курбалий И., Гелбштайн Э. Управление интернетом: проблемы, субъекты, преграды / Пер. с англ. Михеева А.Н., Лазутинской А.В. - М.: МГИМО, 2005. - 184 с.
- Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. -Тошкент: Ўзбекистон, 2000. -Б. 23.
- Негодаев И.А. На путях к информационному обществу. – Ростов-на-Дону: Изд. ДГТУ, 1999. -135 с.
- Султонов Х. Ижтимоий тармоқ одоби. <http://hudud24.uz/ijtimoiy-tarmok-odobi/>
- Султонов Х. Ижтимоий тармоқ одоби. <http://hudud24.uz/ijtimoiy-tarmok-odobi/>
- Султонов Х. Ижтимоий тармоқ одоби. <http://hudud24.uz/ijtimoiy-tarmok-odobi/>
- Сенченко Н.И. 'Novus ordoseclorum' или путь к глобальной колонии. Серия: Глобальная политика. Выпуск 24. М., Самотека, МИД 'Осознание' 2016. - 290 с.
- Ташанов А. Бузғунчилик фаолияти ва бузғунчи ғояларнинг хусусиятлари//. - Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари 2017. 2-сон Б. 110.
- The Power of Ideas: Internet Governance in a Global Multi-Stakeholder Environment/ Ed By Kleinwachter W. - Berlin: Wagner Translations Ltd., 2007 - 294 p.
- Хомский Ноам. Создавая будущее. Оккупации, вторжения, имперское мышление и стабильность / Перевод с англ. М. Альпина нон-фикшн 2015. – 320с.
- O'lmasxo'jayev Z. Globallashuv sharoitida shaxs ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri. Monografiya. 2023.-B 5.
- Ўзбекистон Республикасининг маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. 41-модда. <https://lex.uz/acts/97664>
- Ўзбекистон Республикасининг жиноят кодекси. 140-модда. <https://lex.uz/acts/111453>
- Ғафуров С. Хавфсизлик стратегияси: Марказий Осиё республикалари ва Форс кўрφαзи араб давлатлари амалиёти. – Тошкент: “А. Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси”, 2007. – 17-бет.
- www.oii.ox.ac.ukhttpV/cvberlaw^tanfordiCdn <http://cvbeT.lawharvardedu> www.igp.org

REFERENCES:

- Basin M.A., Shilovich I.I. Sinergetika i Internet (Put k Synergonet). -CPb: Nauka, 1999. -71 s.
- Bikov A.I. Upravleniye Internetom kak odna iz problem sovremennix mejdunarodnix otnosheniy. // Polnteks. — <http://www.politex.info/content/view/438/30/>
- Bell D. Gryadushee postindustrialnoe obshestvo. Opit sotsialnogo prognozirovaniya/Per.sangl.pod red. V.L.Inozemseva. Izd. 2-e, ispravl.i dop. M. Academia 2004. 790s.

4. Dutton W., M. Peltu. The emerging internet governance mosaic: connecting the pieces. // Discussion Paper No 5. // Oxford Internet Institute Forum. - Oxford, 2005.
5. Hoshimov N. Ijtimoiy tarmoq – xatarli qarmoq. <http://fitrat.uz/izhtimoiy-tarmo-hatarli-armo/>
6. Hoshimov N. Ijtimoiy tarmoq – xatarli qarmoq. <http://fitrat.uz/izhtimoiy-tarmo-hatarli-armo/>
7. Hoshimov N. Ijtimoiy tarmoq – xatarli qarmoq. <http://fitrat.uz/izhtimoiy-tarmo-hatarli-armo/>
8. <http://www.iis.ru/library/okinawa/charter.ru.html>
9. <https://qrator.net/ru/>
10. <https://qrator.net/ru/>
11. <http://www.xabar.uz/tehnologiya/ozbekiston-internet-tezligi-boyicha>
12. Internet Governance: A Grand Collaboration. / Ed by MacLean D. - N.Y.:UN ICT Task Force Series, 2005. - 393 p.
13. Internet ijtimoiy tarmoq xizmatlari. <http://www.myshared.ru/slide/1325100/>
14. Kactelc M. Informatsionnaya epoxa: ekonomika, obshestvo i kultura. –M.: Izd-vo VShE, 2000. –С.502-508.
15. Kactelc M. Vlast kommunikatsii. GU VShE 2017. – 56 s.
16. Kurbaliyya I., Gelbstayn E. Upravlenie internetom: problemi, sub'ekti, preiradi / Per. c angl. Mixeeva A.N., Lazutpshoy A.V. - M.: MGIMO, 2005. - 184 c.
17. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - Toshkent.:O'zbekiston, 2000 – B. 23.
18. Negodaev I.A. Na putyax k informatsionnomu obshestvu. – Rostov-na-Donu: Izd. DGTU, 1999. – 135 s.
19. Sultonov X. Ijtimoiy tarmoq odobi. <http://hudud24.uz/ijtimoiy-tarmok-odobi/>
20. Sultonov X. Ijtimoiy tarmoq odobi. <http://hudud24.uz/ijtimoiy-tarmok-odobi/>
21. Sultonov X. Ijtimoiy tarmoq odobi. <http://hudud24.uz/ijtimoiy-tarmok-odobi/>
22. Senchenko N.I. 'Novus ordo seclorum' ili put k globalnoy kolonii. Ceriya: Globalnaya politika. Vipusk 24. M., Samoteka, MID 'Osoznanie' 2016. - 290 c.
23. Tashanov A. Buzg'unchilik faoliyati va buzg'unchi g'oyalarning xususiyatlari//. - Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari 2017. 2-son B. 110.
24. The Power of Ideas: Internet Governance in a Global Multi-Stakeholder Environment/ Ed By Kleinwachter W. - Berlin: Wagner Translations Ltd., 2007 - 294 p.
25. Xomskiy Noam. Sozdavaya budushee. Okkupatsii, vtorjeniya, imperskoe mishleniy i stabilnost. Pervod s angl. M. Alpina non-fikshtn 2015. – 320s.
26. O'lmasxo'jayev Z. Globallashuv sharoitida shaxs ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri. Monografiya. 2023-B 5.
27. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 41-moddasi. <https://lex.uz/acts/97664>
28. O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi. 140-moddasi. <https://lex.uz/acts/111453>
29. G'afurov S. Xavfsizlik strategiyasi: Markaziy Osiyo respublikalari va Fors ko'rfazi arab davlatlari amaliyoti. – Toshkent: "A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi", 2007. – 17-bet.
30. www.oii.ox.ac.ukhttpV/cvberlaw^tanfordiCdnhttp://cvbeT.lawharvardedu www.igp.org